

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021-yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 472,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 61,4 mln. AQSh dollariga yoki 14,9 % ga ko'paygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

		2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi		411,5	472,9	114,9%	X
Eksport 		156,7	214,0	136,5%	100,0
	tovarlar	149,9	197,6	131,8	92,3
	xizmatlar	6,9	16,4	2,4 m.	7,7
Import 		254,7	258,9	101,6%	100,0
	tovarlar	254,7	258,9	101,6	100,0
	Saldo	-98,0	-44,8	x	x

Eksport hajmi 214,0 mln. AQSh dollari (36,5 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 258,9 mln. AQSh dollarini (1,6 % ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 44,8 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG
YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

TSA – 114,0
Eksport – 23,1
Import – 91,8



**Rossiya
Federatsiyasi**

TSA – 100,5
Eksport – 62,4
Import – 38,1



Turkiya

TSA – 88,2
Eksport – 27,5
Import – 60,7



**Qirg'iz
Respublikasi**

TSA – 36,3
Eksport – 36,1
Import – 0,2



Qozog'iston

TSA – 26,7
Eksport – 19,9
Import – 6,8



**Koreya
Respublikasi**

TSA – 19,8
Eksport – 0,6
Import – 19,2



Turkmaniston

TSA – 10,6
Eksport – 5,9
Import – 4,7



Pokiston

TSA – 10,1
Eksport – 9,3
Import – 0,8



Eron

TSA – 8,7
Eksport – 4,7
Import – 4,0



Ukraina

TSA – 8,2
Eksport – 3,0
Import – 5,2

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 97 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (24,1 %), Rossiya Federatsiyasi (21,3 %), Turkiya (18,7 %), Qirg'iz Respublikasi (7,7 %), Qozog'iston (5,6 %), va Koreya Respublikasi (4,2 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	123,0	68,0	114,0
Eksport	6,9	13,3	22,2
Import	116,1	54,7	91,8
Saldo	- 109,2	- 41,4	-69,6
Rossiya Federatsiyasi	67,6	128,6	100,5
Eksport	27,4	45,0	62,4
Import	40,3	83,6	38,1
Saldo	- 12,9	- 38,6	24,3
Turkiya	35,4	43,1	88,2
Eksport	6,2	16,3	27,5
Import	29,2	26,8	60,7
Saldo	-23,0	- 10,5	-33,2
Qirg'iz Respublikasi	37,5	37,0	36,3
Eksport	36,9	36,7	36,1

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Import	0,7	0,3	0,2
Saldo	36,2	36,4	35,9
Qozog'iston	36,9	23,4	26,7
Eksport	22,9	20,1	19,9
Import	14,0	3,3	6,8
Saldo	8,9	16,8	13,2
Koreya Respublikasi	18,2	32,5	19,8
Eksport	0,4	0,4	0,6
Import	17,8	32,1	19,2
Saldo	- 17,4	- 31,7	-18,6
Turkmaniston	11,7	8,9	10,6
Eksport	5,1	4,2	5,9
Import	6,6	4,7	4,7
Saldo	- 1,5	-0,5	1,1
Pokiston	0,3	1,4	10,1
Eksport	0,0	1,2	9,3
Import	0,3	0,2	0,8
Saldo	- 0,3	1,0	8,5
Eron	12,7	5,3	8,7
Eksport	9,1	3,6	4,7
Import	3,6	1,7	4,0
Saldo	5,4	2,1	0,7
Ukraina	9,1	5,9	8,2
Eksport	6,4	1,6	3,0
Import	2,7	4,3	5,2
Saldo	3,7	- 2,8	-2,2



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida 2020 - yilning shu davriga nisbatan 40,5 foizga oshgan va jami TSA dagi ulushi 59,5 % ni tashkil etdi.


XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 197 tani tashkil etib, ular tomonidan 214,0 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 31,4 % ga ko'paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,3 % ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (48,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (31,2 %), turli xil tayyor buyumlar (7,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 31,2
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 4,3 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,4 %
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %

- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 0,4 %
- Sanoat tovarlari – 48,9 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,2 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 7,0 %
- Xizmatlar – 7,7 %



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	214,0	136,5	100,0	133,7	117,0	100,0	80,4	182,0	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	66,7	140,4	31,2	52,5	125,1	39,3	14,2	2,5 m.	17,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,6	0,0	-	-	-	0,0	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,3	61,7	4,3	2,0	43,5	1,5	7,2	69,7	9,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,8	30,8 m.	0,4	0,6	25,8 m.	0,5	0,1	195,7 m.	0,2
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	3,1	0,0	0,1	4,1	0,1	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	124,1	0,4	0,6	80,5	0,4	0,3	-	0,4
Sanoat tovarlari	104,6	170,0	48,9	51,8	142,9	38,8	52,7	2,1 m.	65,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,4	184,6	0,2	0,4	181,4	0,3	0,0	69,4 m.	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	15,0	66,2	7,0	14,9	66,3	11,1	0,1	48,0	0,1
Xizmatlar	16,4	2,3 m.	7,7	10,9	2,3 m.	8,1	5,6	2,5 m.	7,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda turli xil tayyor buyumlarga toʻgʻri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari), mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar, hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar eksportida pasayish kuzatildi.




EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	52,1	30,3	31,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari	10,7	9,6	4,3
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar	0,9	0,0	0,4
Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	0,2	1,4	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	0,5	0,4	0,4
Sanoat tovarlari	24,4	39,2	48,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,1	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	2,4	14,4	7,0
Xizmatlar	8,6	4,4	7,7




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 29,2 %), Qirg'iz Respublikasi (16,9 %), Turkiya (12,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,4%), Qozog'iston (9,3 %), Pokiston (4,3 %) va Turkmaniston (2,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 85,6 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-noyabr, % da)**



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeyini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg'iz Respublikasi va Turkiya o'rin egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-noyabr)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	45,0	62,4	164,5	138,6	1	1
Qirg'iz Respublikasi	36,7	36,1	99,6	98,2	2	2

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Turkiya	16,3	27,5	2,6 m.	169,2	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	13,3	22,2	191,4	167,4	5	4
Qozog'iston	20,1	19,9	88,0	99,1	3	5
Pokiston	1,2	9,3	28,3 m.	8,0 m.	12	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)**


XSST tarkibi	Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	45,0	62,4	36,7	36,1	16,3	27,5	13,3	22,2
Shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,6	18,7	5,6	17,1	0,8	0,6	0,6	1,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,3	0,5	4,1	0,9	3,3	1,4	2,2	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,5	0,0	0,0	-	0,0	-	-

XSST tarkibi	Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	0,3	0,0	-	0,3	-	-
Sanoat tovarlari	27,2	34,6	5,1	8,6	12,0	25,0	10,5	18,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	0,2	0,4	0,0	0,0	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,1	0,3	21,5	9,1	0,2	0,1	-	-
Xizmatlar	2,7	7,8	0,0	0,0	0,0	0,2	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 16,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 7,7 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (75,8%), safarlar (turizm) (16,0 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (8,3%) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi % da)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 64,8 mln. dollar qiymatli yoki 105,6 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 28,6 mln. AQSh dollariga teng 56,9 ming tonna sabzavot, shuningdek, 11,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 13,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 30,4 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (28,8 %), Qirg'iz Respublikasi (27,3 %), Qozog'iston (16,8%) va Turkmaniston (3,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 258,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,6 % ga ko'paygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (39,8 %), turli xil tayyor buyumlar (28,3 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari, 9,6 %) , oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (6,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)**



 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 6,9 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 6,4 %
 Ichimliklar va tamaki – 0,0 %	 Sanoat tovarlari – 6,9 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 9,6 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunolari – 39,8 %
 Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,9 %	 Turli xil tayyor buyumlar –28,3 %
 Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 1,1 %	

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 mln. AQSh dollariga ko'paygan va 258,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da
Jami import	258,9	101,6	100,0	57,7	58,6	100,0	201,2	128,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,0	24,8	6,9	11,1	24,1	19,2	6,9	26,0	3,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	3,6 m.	0,0	0,1	3,6 m.	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	24,9	91,5	9,6	21,7	92,9	37,6	3,3	82,8	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash	2,4	110,0	0,9	1,8	84,8	3,1	0,6	6,2 m.	0,3

materiallar									
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,8	48,7	1,1	2,6	45,3	4,5	0,2	5,2 m.	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16,6	127,8	6,4	4,2	80,9	7,4	12,3	159,7	6,1
Sanoat tovarlari	17,8	117,7	6,9	7,1	99,4	12,4	10,6	134,4	5,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	103,0	146,7	39,8	4,0	71,0	7,0	98,9	153,4	49,2
Turli xil tayyor buyumlar	73,3	150,5	28,3	5,0	165,3	8,7	68,3	149,5	34,0



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0



shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,1	28,5	6,9
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,5	10,7	9,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,2	0,9	0,9

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,7	2,3	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,4	5,1	6,4
Sanoat tovarlari	4,7	5,9	6,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	52,8	27,6	39,8
Turli xil tayyor buyumlar	23,6	19,1	28,3



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi % da)



2020- yil bilan taqqoslaganda, import bo'yicha eng yuqori yettitalikda o'zgarish kuzatilmadi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-noyabr)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	54,7	91,7	47,1	167,7	2	1
Turkiya	26,8	60,7	91,8	2,3 m.	4	2
Rossiya Federatsiyasi	83,6	38,1	2,1 m.	45,6	1	3
Koreya Respublikasi	32,2	19,2	181,1	59,7	3	4
Qozog'iston	3,3	6,8	23,6	2,0 m.	9	5
Ukraina	4,3	5,1	161,2	118,1	8	6
Germaniya	4,6	5,0	58,7	107,9	7	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-noyabr)**



2021-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga 52 ta xorijiy davlatlardan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Ukraina va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 226,6 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,5 % ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09**